



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darolarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darolarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darolarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimurning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	



PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA DARS SIFATINI OSHIRISH

D. K. Ibadullayev

ChDPU Axborot texnologiyalari va
 sun'iy intellekt kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik dasturiy vositalar haqidagi ma'lumotlar, ularning funksiyalari, imkoniyatlari hamda ta'lim sohasidagi yutuqlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish va ular yordamida dars sifatini oshirish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, Moodle, LMS, ta'lim, Google Classroom, individual ta'lim.

Abstract: This article analyzes pedagogical software tools, their functions, capabilities, and achievements in the field of education. In addition, it presents recommendations for the effective use of pedagogical software tools and methods for improving the quality of teaching.

Key words: pedagogy, Moodle, LMS, education, Google Classroom, individual learning.

Аннотация: В данной статье представлен анализ педагогических программных средств, их функций, возможностей, а также достижений в сфере образования. Кроме того, рассмотрены рекомендации по использованию педагогических программных средств и методы их эффективного применения для повышения качества обучения.

Ключевые слова: педагогика, Moodle, LMS, образование, Google Classroom, индивидуальное обучение.

KIRISH

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulotlar (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot hamda qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib, yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadida qo'llaniladi;
- mashq qildirgichlar – avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga qo'yiladigan talablar

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy va fiziologik guruhlariga ajratiladi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarlilik, qat'iy va tizimli bayon etilish, pedagogika, psixologiya, informatika hamda ergonomikaning asosiy tamoyillarini hisobga olish, zamonaviy fan yutuqlariga tayangan holda o'quv faoliyati mazmunini shakllantirish, uzluksizlik va yaxlitlik, izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish, o'qitish natijalarining mustahkamligi, muloqotning interfaoligi, shuningdek, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, muayyan fan mazmunining o'ziga xosligini inobatga olish, axborotni taqdim etishning zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va turli shakllarda amalga oshirilishi kiradi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqat (barqarorlik, bir faoliyatdan boshqasiga ko'chish), motivatsiya (faol ishlash shakllari, yuqori darajadagi ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa orqali o'quvchilarning motivatsiyasini doimiy rag'batlantirish), xotira, tasavvur, yosh va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish kiradi. Bunda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni inobatga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv vazifalarining murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ortiqcha hissiy, asabiy va aqliy yuklamalarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik talablarga shaxsiy kompyuterlar, ularning tashqi qurilmalari hamda test o'tkazishga mo'ljallangan vositalar kiradi.

Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, internet-brauzerlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya vositalari, boshqaruv tizimlari hamda o'qitish jarayonining individual va jamoaviy shakllarini tashkil etish, shuningdek, tashqi qayta aloqa vositalari kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartibli va ifodalilik (elementlarning joylashuvi, o'lchami, rangi), bezakning funksional vazifaga mosligi hamda ergonomik talablar bilan uyg'unligi.

Maxsus talablarga interfaollik, maqsadga yo'naltirilganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audio imkoniyatlar, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanishga yo'naltirilganlik, differensiallash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funktsionallik va ishonchlilik kiradi.

Ergonomik talablarga foydalanuvchiga qulaylik yaratish, foydalanuvchiga moslashuvchanlik hamda ekran shakllarini samarali tashkil etish kiradi.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlari, tadqiqot metodlari hamda axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy etish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Fanlar bo'yicha yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi lozim:

1. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini taqdim etishning tushunchaviy, obrazli va harakatli komponentlari o'zaro bog'liqligiga tayangan holda yaratilishi zarur.
2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida taqdim etishi, fanlararo mantiqiy bog'liqlikni hisobga olishi kerak.
3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchining o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirish darajasini turli nazorat shakllari orqali aniqlash imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish asosida o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ularning funksional hamda psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar yordamida imkon qadar ko'proq ma'lumot berishga intilishi ayrim hollarda o'quvchining ortiqcha charchashiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ma'lumot uzatish tezligining haddan tashqari oshirilishi o'zlashtirish sifatining pasayishiga, xatolar sonining ortishiga hamda o'quvchining umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Fiziologik-gigiyenik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompyuterda ishlash jarayonida bilim oluvchilarning aqliy ish qobiliyati o'zlashtirilayotgan ma'lumot hajmiga teskari proporsional ravishda o'zgarib boradi. Bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- ko'rish organlariga tushadigan yuklamaning ortib borishi;
- yangiliklarni qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan dastlabki ruhiy ko'tarinkilikning pasayishi;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli hissiy zo'riqishning ortib borishi;
- katta hajmdagi ta'limiy resurslarni qabul qilish keyingi axborot resurslarini faol o'zlashtirishga to'sqinlik qilishi.

Mazkur holat ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishda zarur didaktik, psixofiziologik hamda metodik talablarni hisobga olgan holda ish yuritish lozimligini ko'rsatadi.

Pedagogik dasturiy vositalarning psixofiziologik jihatdan samaradorligi, birinchidan, o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi, tarbiyalanganligi, intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko'rsatkichlari hamda



motivatsion barqarorligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, u o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik texnologiyalar va ta'lim vositalaridan oqilona foydalanish ko'rsatkichlari, shuningdek, o'qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivatsiyasi hamda ish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik dasturiy vositalar va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ularning ta'lim sifati hamda o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasiga ijobiy ta'siri alohida ta'kidlangan. Xorijiy tadqiqotlarda interfaol elektron kontent, virtual muhit va masofaviy ta'lim platformalarining samaradorligi keng yoritilgan. Xususan, STEM ta'limida golografik texnologiyalar, 3D vizualizatsiya va kengaytirilgan reallik vositalari murakkab tushunchalarni sodda va ko'rgazmali tarzda o'rgatishga xizmat qilishi qayd etilgan. SCORM, AICC va Tin Can API kabi standartlar elektron resurslarni yagona tizimda boshqarish imkonini beradi. Zamonaviy LMS platformalari, xususan Moodle va Google Classroom, ta'lim jarayonini boshqarish, nazorat qilish va individual yondashuvni kuchaytirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa pedagogik dasturiy vositalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi, o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta'lim sifati oshirishdagi roli tahlil qilingan. Umuman olganda, ilmiy manbalar pedagogik dasturiy vositalardan oqilona foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda pedagogik dasturiy vositalarning dars sifati va ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Articulate Storyline, Adobe Captivate, CourseLab, iSpring Pro hamda Moodle platformalarining funksional imkoniyatlari o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, elektron darsliklar, interfaol testlar va masofaviy ta'lim modullarining amaliy qo'llanishi tahlil qilindi. O'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmasi, axborotni qabul qilish darajasi va nazorat natijalari asosiy ko'rsatkichlar sifatida olindi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar hamda zamonaviy LMS tizimlari faoliyati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar statistik va mantiqiy tahlil asosida qayta ishlanib, pedagogik dasturiy vositalarning dars sifati oshirishdagi ustun jihatlari aniqlandi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimlarida turli o'rgatuvchi dasturiy vositalardan keng foydalanilmoqda. O'rgatuvchi ko'rgazmali dasturiy vositalar, asosan, mualliflik dasturiy ta'minotlari yordamida yaratiladi.


Ta'lim jarayonida bunday dasturlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlamoqda. Buning asosiy sababi shundaki, auditoriyada uzatiladigan bilimlarga oid axborotlarni qabul qilish va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi bir vaqtning o'zida eshitadi, ko'radi va o'zlashtiradi. Natijada ta'lim sifati hamda bilimlarni mustahkamlash darajasi ortadi.

Mualliflik dasturiy ta'minoti – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning samarali o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Mualliflik dasturiy ta'minotlari yordamida elektron darsliklar yaratish qulay va samarali hisoblanadi. Elektron darsliklar kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda muhim tushuncha va qonuniyatlarni anglash hamda ularni uzoq muddat xotirada saqlashni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mualliflik dasturlaridan foydalanish o'quv materiallarini interfaol tarzda taqdim etish, ta'lim oluvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Mualliflik dasturlariga misol sifatida Articulate Storyline, Adobe Captivate, CourseLab, iSpring Pro hamda Lectora kabi dasturlarni keltirish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Pedagogik mualliflik dasturiy ta'minoti yordamida elektron ta'lim kontentini yaratish jarayoni

Articulate Storyline kurslar yaratish uchun mo'ljallangan eng mashhur dasturlardan biri bo'lib, u moslashuvchan, foydalanishda qulay va turli maqsadli kurslar yaratish uchun ishlab chiqilgan. Articulate Storyline – uch utilitli (Presenter, Quizmaker, Engage) paket, o'rgatuvchi kurslarni, taqdimotlar, testlar va kontentning boshqa shakllarini iPadda ko'rish va masofali ta'lim tizimlariga integrallanishi mumkin bo'lgan Flash va HTML5 formatlarda yaratish imkoniyatini beradi. Dastur murakkab interfaol senariylarni amalga oshirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Endi o'quv kursining murakkab interfaol senariysini yaratish uchun dastur tuzishni yoki flashni qo'llashni bilish shart emas – Storyline buning uchun barcha vositalarni taklif etadi. Ushbu dasturning xususiyati oson o'zlashtirilishida, shuningdek, yaratilayotgan loyihalarning yorqin vizual uslubida: Articulate mahsulotlarida ishlangan roliklar boshqa e-learning muharrirlaridan ko'ra yanada zamonaviyroq va dinamikroq ko'rinadi. Dastur Microsoft Office 2007ga o'xshash interfeysga ega, ishlab chiquvchilar, foydalanuvchilar, o'rganuvchilari oson bo'lishi maqsadida tashqi ko'rinishini PowerPointga maksimal o'xshashligini ta'minlangan. Yuqorida buyruqlar to'plamidan iborat klassik Ribbon-panel joylashgan.

Barcha turdagi multimediyali kontentlar: video, flash, ovoz, veb-obyektlarni qo'yishni qo'llab-quvvatlaydi. Barcha ko'p tarqalgan video (flv, avi, wmv, mov, mpeg, dv, 3g) va ovoz (mp3, wma, wav, m4a, aac, aiff, ogg) formatlari importlanadi, bundan tashqari, Internetdagi rolikning HTML-kodini yoki veb-kameradan video-yozish, ovozni esa mikrofondan yozib qo'yish mumkin. SWF – roliklari ham muammosiz qabul qilinadi, bu esa boshqa multimediya muharrirlarining loyihalari bilan integratsiyalash bo'yicha cheksiz imkoniyatlarni ochadi. Veb-sahifalar slaydlarda freymlar ko'rinishida aks etadi. Ulardan foydalanish mumkin va bu ham roliklarni loyihalash imkoniyatlarini kengaytiradi (2-rasm).



2-rasm: Articulate Storyline dasturining ishchi interfeysi va interfaol o'quv kontentini yaratish oynasi



Adobe Captivate– Microsoft Windows va dasturiy ta'minotni namoyish etish, video-darslarni yozish, dastur simulyasiyasini yaratish, o'quv taqdimotlarni yaratish va .swf formatda turli testlarni yaratish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan Mac OS Xning 5 versiyalari uchun elektron ta'limda qo'llaniladigan elektron kurslarni yaratish va tahrirlash dasturi. Adobe Captivatedagi generatsiyalangan .swf ni .aviga videoxosting saytlarga konvertatsiya qilish imkoniyati mavjud. Dastur simulyasiyalarini yaratish uchun Captivateda chap va o'ng sichqoncha tugmasini bosish va klavishalarni bosish mumkin. SHuningdek, Adobe Captivateni skrinkastlarni, podkastlarni yaratish va Microsoft PowerPoint taqdimotlarini Adobe Flash formatiga konvertatsiya qilish uchun qo'llash mumkin.

Captivate yordamida dasturlarning interfaol namoyishlari, simulyasiyalar, yordamchi ma'lumotlar, skrinkastlar, o'yinlar va darslar yaratish va tahrirlash mumkin. Captivateda yaratilgan skrinkastlar ekrandan qilingan yozuvlarga nisbatan ancha kam joy egallaydi. Foydalanuvchilar Captivateda taqdimotlarga effektlar, faol nuqtalar, matnli sohalar, video va hokazolarni qo'shib tahrirlashlari mumkin. Mualliflar mazmunini va u yoki bu elementni paydo bo'lish vaqtlarini tahrirlashlari mumkin. Faol nuqtalarni bosish boshqa slaydga o'tish, shuningdek, tashqi murojaatlarga o'tishni ta'minlashi mumkin. Captivate tasvirlarni, PowerPoint taqdimotlarni, video, .flv va audiolarni loyihaga import qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Adobe Captivate dasturi materiallarni yaratish va namoyish etishning qulay vositasidir. Captivate keng doiradagi imkoniyatlarni taklif etadi: Microsoft PowerPointda yaratilgan taqdimotlar asosida o'quv materiallarni yaratish, monitordagi suratni olib, savolga berilgan javobga bog'liq ravishda o'tish imkoniyatli testlar yaratish.

CourseLab dasturi: CourseLab – bu kuchli va shu bilan birga foydalanuvchiga oddiy bo'lgan internet tizimida, masofaviy ta'lim tizimlarida, kompakt disk yoki boshqa har qanday saqlash qurilmalarida ishlatish uchun mo'ljallangan interaktiv ta'lim materiallari (elektron darsliklar) tayyorlash uchun mo'ljallangan kuchli va ishlatish oson bo'lgan dasturiy vositadir (3-rasm).



3-rasm: Adobe Captivate dasturining ishchi interfeysi va interfaol test yaratish oynasi

CourseLab dasturining asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- WYSIWYG tizimida ko'rish va natijalarni olish mumkin bo'lgan ta'lim materiallarini yaratish hamda tahrir qilish imkoniyati mavjud;
- foydalanuvchidan HTML yoki boshqa dasturlash tillarini bilish talab etilmaydi;
- obyektli yondashuv asosida har qanday murakkablikdagi ta'lim materiallarini yaratish mumkin;
- ssenariylardan foydalanish murakkab ko'p obyektli bog'liqliklarni yaratishni soddalashtiradi;
- testlarni avtomatik yaratish mexanizmi mavjud;
- ochiq obyektli interfeys obyektlar va shablonlar kutubxonasini, shuningdek foydalanuvchi yaratgan kutubxonalarini kengaytirish imkonini beradi;
- obyektlar animatsiyasi mexanizmini qo'llab-quvvatlaydi.

CourseLab yordamida yaratilgan ta'lim materiallari foydalanish turiga qarab elektron ta'limning AICC hamda SCORM 1.2 standartlariga mos keladi.

iSpring Pro dasturi esa PPT, PPTX, PPS va PPSX formatdagi fayllarni Flash (SWF) hamda HTML formatiga konvertatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mualliflik dasturidir. Dastur orqali foydalanuvchilar Flash roliklar va YouTube videoresurslarini Microsoft PowerPoint slaydlariga joylashtirishlari mumkin.

Xususan, ushbu dastur quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- elektron o'quv kontentlarini SCORM va Tin Can API tizimlariga o'tkazish, bu esa ixtiyoriy LMS bilan integratsiyalash imkonini beradi;
- PowerPoint taqdimot fayllari hajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud;
- PowerPoint taqdimotlarining himoyalaniishini ta'minlaydi.

Mazkur paket o'z ichiga uchta dasturiy modulni oladi. Ular yordamida audio, video, interfaol elementlar va testlar bilan boyitilgan onlayn taqdimot materiallari, o'quv kurslari, turli so'rovnomalar, anketalar, interfaol testlar hamda 3D kitob kabi elektron nashrlarni yaratish mumkin.

Elektron o'quv kontentlariga qo'yiladigan asosiy standartlardan biri SCORM hisoblanadi. SCORM (Sharable Content Object Reference Model) – birgalikda foydalanish uchun mo'ljallangan o'quv obyektlari modeli bo'lib, u o'quvchi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni LMS tizimiga hisobot ko'rinishida yuboradi. Masalan, o'quvchi barcha slaydlarni ko'rganligi yoki ko'rmaganligi, har bir slaydni qancha vaqt o'rganganligi kabi ma'lumotlar qayd etiladi. Bundan tashqari, ushbu standart asosida yaratilgan kontentni boshqa LMS tizimlariga eksport qilish ham mumkin. Shu sababli elektron ta'lim resurslarini aynan SCORM, Tin Can API yoki AICC standartlari asosida yaratish tavsiya etiladi.

Moodle tizimida o'quv jarayonini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Moodle – Web muhitid o'qitish va onlayn rejimdagi darslarni tashkil etuvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group Work, Student Tracking kabi ko'plab modullar mavjud. Boshqa LMS tizimlari singari u IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlariga nisbatan eng ko'p qo'shimcha plugin va modullarga ega platformalardan biri aynan Moodle hisoblanadi. Ushbu majmuaning asosiy vazifasi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida elektron resurslar almashinuvini tashkil etish, topshiriq va vazifalarni joylashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlari ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim jarayoni aynan Moodle platformasi orqali tashkil etilmoqda. O'zbekistondagi ko'plab ta'lim muassasalarida ham Moodle virtual ta'lim muhiti sifatida keng qo'llanilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish hamda bilimlarni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Elektron darsliklar, interfaol topshiriqlar, test tizimlari va masofaviy ta'lim platformalari o'quv materiallarini qulay, ko'rgazmali va tizimli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Moodle, Google Classroom, Articulate Storyline va Adobe Captivate kabi vositalar o'qituvchi hamda ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, pedagogik dasturiy vositalarni joriy etishda texnik baza, internet sifati va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Taklif sifatida ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuter texnikalari bilan ta'minlash, o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, milliy elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda LMS tizimlaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Mazkur choralarda dars sifati, ta'lim samaradorligi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Holographic Technology in STEM Education and Training. ResearchGate.
2. 3D Visualization through the Hologram for the Learning of Area. MDPI, Mathematics, 7(3), 247.
3. The Influence of eXtended Reality 3D Visualization Knowledge. PubMed Central (PMC).
4. Digital Twins and Holograms in STEM Education: A Systematic Review of Pedagogical Models, Benefits and Barriers. ResearchGate.
5. CT Integration in STEAM Learning: Fostering Students' Creativity. Taylor & Francis Online, 2024.
6. The Effectiveness of 3D Holographic Technology on Students. Semantic Scholar.
7. 3D Holographic Technology for University Students in International Higher Education: A Systematic Review of Pedagogical Models, Benefits and Implementation Strategies. ResearchGate.
8. Is Holographic Teaching an Educational Innovation? Semantic Scholar.
9. The Effectiveness of the Hologram in Developing Achievement in Science among Middle School Students in the State of Kuwait. ResearchGate.
10. Best Practices for Networked Movement Abilities (CMC). Epic Games Community.
11. Extended Reality in Computer Science Education: A Narrative Review. MDPI, 4(4), 56.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.